



TA'LIMDA PEDAGOGIK O'LCHOVLARNI ZAMONAVIYLASHTIRISH VA XALQARO DASTURLARNI JORIY ETISH ZARURATI

Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjonovna

Farg'ona davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10200298>

ARTICLE INFO

Received: 16th November 2023

Accepted: 22th November 2023

Online: 23th November 2023

KEY WORDS

Xalqaro dasturlar, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada bugungi kunda ta'limda pedagogik o'lchovlarni zamonaviylashtirish va xalqaro dasturlarni joriy etishning zarurati ortib bormoqda. Xalqaro baholash dasturlarining bosh maqsadi maktabda o'rganayotgan bilimlarini talabalar tomonidan kundalik hayotda qo'llanishi holati qanday ekanligini aniqlash, rivojini ta'minlashga xizmat qiluvchi dasturlarni ishlab chiqish bilan ijtimoiy muammolarni oldini olish ustuvor vazifalar to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan

Bugungi kunda ta'limda ta'limda pedagogik o'lchovlarni zamonaviylashtirish va xalqaro dasturlarni joriy etishning zarurati ortib bormoqda. Xalqaro baholash dasturlarining bosh maqsadi maktabda o'rganayotgan bilimlarini talabalar tomonidan kundalik hayotda qo'llanishi holati qanday ekanligini aniqlashdan iborat.[1]

Xalqaro baholash standartlarining vazifasi unda ishtirok etuvchi davlatlar, ta'limga mas'ul vazirlik va idoralarning oldida turgan quyidagi savollarga javob topishida yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir:

- talabalar oliy ta'lim so'nggida demokratik jamiyatda faol fuqarolik rolini olishga yetarli tayyorlanganmi?
- talabalar o'z g'oya va tasavvurlarini tahlil qilish, asoslash va shular asosida muloqot qila olish ko'nikmasiga egami?
- talabalar hozirgi mehnat bozori talablari asosida ta'lim olayaptimi?
- talabalar «butun hayot davomida o'qish» talablariga javob beradimi?

Ta'lim tizimidagi xalqaro baholash dasturlari tarixi aslida 1958 yilda bir qator Yevropa davlatlari va AQSH tomonidan Gamburg shahrida IYeA Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasiga asos solinishi bilan boshlanadi. Mazkur uyushma nodavlat ilmiy tashkilot sanalar edi. Mazkur uyushmaga xalqaro ta'lim dasturlarida mashhur bo'lgan Benjamin Blum ham a'zo edi. Benjamin Blum o'quv maqsadlariga asoslangan o'zlashtirishni o'lchash bo'yicha mutaxassis hisoblanadi. Shuningdek, mashhur psixometrik olim R.L.Torndike ham bu uyushmaga a'zo bo'lgan. Ushbu uyushmaning maqsadi ta'limning sifati va tarixiy rivojlanishini,



ta'limdagi an'analarning o'zgarishini empirik dastur natijalari bilan to'ldirishdan iborat edi. Shuningdek, asosiy maqsad mazkur dastur natijalari asosida ta'lim jarayonini yagona mezonlar asosida xalqaro doirada taqqoslash bo'lgan.

Mazkur uyushma tuzilguniga qadar dunyoning yetuk ta'lim dasturchilari turli davlatlarda o'quv jarayonining madaniy-ijtimoiy jihatdan tadqiq etib chiqishgan. 1960 yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tomonidan birinchi xalqaro taqqoslash dasturlari o'tkazila boshlandi. 1964 yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tomonidan matematika fani bo'yicha birinchi xalqaro baholash dasturi o'tkazildi. Mazkur baholash dasturining asosiy tashkilotchilaridan biri Germaniya xalqaro pedagogik dasturlar instituti bo'ldi.

1966 yildan 1973 yilgacha 21 ta davlatlar ishtirokida ta'lim bo'yicha dunyoda mashhur olimlar, jumladan, J.B.Keroll tashabbusi bilan «Oltita fan bo'yicha dastur» (Six Subjects Survey) o'tkazildi. Mazkur baholash dasturida 6 ta fan: tabiiy fanlar, adabiyot, o'qish, ingliz tili, fransuz tillari chet tili sifatida, shuningdek, siyosiy ta'lim fanlari bo'yicha baholash dasturi o'tkazildi. 1990 yillar boshida esa Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi – IEA tomonidan savodxonlik bo'yicha 9-14 yoshli o'quvchilarga mo'ljallangan baholash dasturi (Reading Literacy Study) o'tkazila boshlandi.[2] Bu baholash dasturi keyinchalik o'tkazilgan baholash dasturlariga turtki bo'ldi. 2010 yildan boshlab katta yoshdagilarning kompetensiyalarini baholovchi xalqaro baholash dasturlari o'tkazilmoqda. Mazkur baholash dasturi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tashkillashtiriladi.[3]

1990 yillar oxirida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ta'limni baholash mezonlarini ta'limda erishilgan kompetensiyalarni o'lchash bilan kengaytirishga harakat qildi. Bu orqali nafaqat ta'limning moliyalashtirish harajatlari yoki resurslarni o'lchash, balki ta'limda erishilgan natijalarni o'lchash maqsad qilib olindi. Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasining tajribalari o'quvchi va talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturini joriy etilishiga olib keldi. Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi natijalari ishtirokchi davlatlarning ta'lim siyosati va ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha islohotlarga, ta'lim bo'yicha muzokaralarga turtki bo'ldi. Ta'limdagi yutuqlarini baholash 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha asosiy tayanch kompetensiyalarining tizimli xususiyatlarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining bir qancha loyihalaridan biri bo'lib, xalqaro doirada ta'lim natijalarini erishilgan bilim va ko'nikmalar, ya'ni kompetensiyalar bilan taqqoslashga qaratilgan. Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi mazmunan real kundalik holatlarga qaratilgan bo'lib, OTMda erishilgan bilimga kamroq e'tibor berilgan. Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi birinchi navbatda ta'limning yakuniga qadar erishilgan umumiy ko'nikma, bilim va yondashuvlarni va ularning o'quv rejasidagi bilim va tushunchalarga bog'liqligini tekshiradi.[4]

Xalqaro ekspertlar guruhi xalqaro baholashning umumiy konsepsiyasini yaratishadi va mazkur konsepsiya asosiy tayanch kompetensiyalarni o'lchash imkonini beradi. Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi ishtirokchi davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'zgarishlar uchun turtki, keng jamoatchilik va ko'plab ilmiy dastur ishlarining bosh mavzusi bo'libgina qolmay, o'z navbatida ko'p marotaba tanqid nishoniga ham



aylangan. Alohida ta'kidlash joizki, dasturning maqsadi hamda qo'llanilgan uslublar va dastur natijalarining interpretatsiyasi keng muhokama qilinmoqda.

Ma'lumki, talabalarining ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi ta'lim, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy sohalariga oid dastur hisoblanadi. Dastur qiyosiy taqqoslash yordamida davlatlarning maktab ta'lim tizimi oldida turgan ko'plab muammolar yechimini topishga yordam berib kelmoqda, davlatlar ta'lim siyosati yo'nalishini belgilash, davlatlarda mutaxassislar tayyorlash, iqtisodiyot sohalarini rejalashtirishda asosiy ma'lumotlar bazasi vazifasini o'tamoqda. Dastur natijalari turli ilmiy dastur sohalarini nuqtai-nazaridan tahlil qilinmoqda. Jumladan, ta'lim siyosati, ta'limni moliyalashtirish, o'quv jarayonlarining tashkil etilishi, o'qituvchilarning malakasini oshirish, talabalarining ota-onalarini ta'lim tizimiga ta'siri nuqtai nazaridan va hokazo.

Talabalarining ijtimoiy holati va ularning rivojlanishi bilan bog'liqligi va shu kabi ko'plab muhim masalalar mazkur dastur yordamida kun tartibidagi dolzarb masalaga aylanib bormoqda. U o'z navbatida ta'lim sifatining yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Dasturchilar talabalarining ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturining sifat nazorati mexanizmi yo'qligini ta'kidlab kelishadi: baholash dasturi ishtirokchi davlatlar va xususiy sektorda faoliyat ko'rsatadigan institut (ACER Avstraliya) tomonidan o'tkaziladi va dastur natijalari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining bosmaxonasi tomonidan nashr etiladi. Mazkur dastur bo'yicha sifat nazorati mexanizmini yaratish yuzasidan olimlar, ta'lim siyosatiga mas'ullar tomonidan dastur o'tkazuvchi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga ko'plab murojaatlar qilingan. Yakuniy natijalarni nashr qilishdan oldin hech qanday ekstern ekspertdan taqriz so'ralmaydi. Bu esa natijalar bir tomonlama tahlil qilingan, degan xulosa uchun asos bo'ladi. Agar ekstern taqriz olinsa, natijalar interpretatsiya qilinsa, natijalarning xolisligi ta'minlangan bo'ladi.

Talabalarining ta'limdagi yutuqlarini baholashning maqsadi ishtirokchi davlatlarning doimiy uch yillik sikl oralig'ida ta'lim tizimi bo'yicha umumiy tasavvurga ega bo'lish, talabalarining zamon talablariga qay tarzda tayyor ekanligini tadqiq qilishdan iborat. Dasturda faktlarga asoslangan bilim emas, ko'proq asosiy tayanch kompetensiyalar tadqiq qilingan. Bu kompetensiyalar talabalarining jamiyat, iqtisodiy va siyosiy hayot uchun zarur tayanch kompetensiyalaridir. Ammo, mazkur dastur maqsadiga nisbatan fransuz tilida so'zlashuvchi davlatlar – Fransiya, Kanada, Shveysariya davlatlaridan bo'lgan olimlar o'z tanqidiy fikrlarini bildirib keladilar. Ularning fikricha «dastur natijalari anglo-sakson davlatlari foydasiga yo'naltirilgan» va boshqa tomondan ishtirokchi davlatlarga «o'quv rejalarini kundalik hayotda zarur bo'ladigan asosiy tayanch kompetensiyalarga yo'naltirishga bosim qilingan». Shu kabi fikrlar ular tanqidining asosini tashkil qiladi. Misol tariqasida fransuz oliy ta'lim tizimi yuqori aniqlikka e'tibor qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Y.Vuttke dasturdagi asosiy tayanch kompetensiya sohalarini: matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlarni tanlab olinishiga o'z tanqidiy va ilmiy jihatdan fikrlarini bayon qilgan. Dasturda mazkur tayanch kompetensiyalarga katta e'tibor qaratilishi natijasida ijtimoiy fanlar, xorijiy tillar va san'atga taalluqli fanlar e'tiborsiz qoldirilgan. Ta'limning markaziy yo'nalishlari – o'z fikrini bayon qilish, adabiyotga oid bilim, tarixiy, geografik, siyosiy va iqtisodiy bilimlar, diniy va etikaga oid bilimlarga muhim e'tibor qaratilmagan. X.Xunting esa dastur konseptini «ensiklopedik emas» va «dasturdagi asosiy e'tibor keng jamoatchilik o'rtasida ko'p muhokama qilinadigan tayanch



kompetensiyalarga qaratilgan va bu dasturning reklamasi» deb ta'riflagan. T.Yanke ilmiy tanqidida dasturning bosh maqsadi «ta'limni standartlashtirish» va dasturni «test sanoatiga qo'shilish» deb ta'riflab o'tilgan.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro baholash standartlari quyidagi holatlarni aniqlash imkoniyatini bermaydi:

Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi qaysi davlatda «yaxshi» yoki «yomon» ta'lim tizimiga ega ekanligini aniqlash imkoniyatini bermaydi. Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi ma'lum bir uslublar bilan tayanch kompetensiyalarni dastur davridagi holatini aniqlab beradi.

Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash bu makrodiagnostika bo'lib, rasmiy va o'quv mashg'ulotlaridan olingan test hamda imtihon holatidir. Shuningdek, bu baholash tashqi baholash hisoblanib, u o'tkaziladigan OTMda faoliyat olib bormaydigan mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi. [7]

Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash guruhlar, OTMar, aholining ijtimoiy tabaqalari, jinsi va davlati bo'yicha natijalarni umumlashtiradi va jamiyatning turli jabhalari uchun ta'limga oid ma'lumotlarni statistika ko'rinishida taqdim etadi. Mazkur baholash OTMlarning ta'lim va tarbiya funksiyasiga to'ldiruvchi vazifalarini o'taydi. OTMlarda talabalarning faqat ma'lum fan bo'yicha erishilgan bilimlari emas, balki fanlararo va bir qancha fanlarni umumlashtiruvchi topshiriqlarni bajara olishini tekshiruvchi asosiy tayanch kompetensiyalarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Kontekstual ko'rsatkichlar. Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholashda tayanch kompetensiyalar bilan bir qatorda savolnoma yordamida kontekstual ko'rsatkichlar ham aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar tayanch kompetensiyalar shakllanishining turli omillarini aniqlashga qaratilgan. Jumladan, talabalarning ta'lim olish jarayoniga qiziqishi, o'qishning o'z hayoti uchun ahamiyati, talabalarning oiladagi va OTMdagi ta'lim olishi tadqiq qilinadi. Masalan, talabalarning tayanch kompetensiyalari oliy ta'lim tizimi yoki o'quv mashg'ulotlariga bog'liqligi yoki talabalarning ijtimoiy kelib chiqishi va ularning tayanch kompetensiyalarining darajasi bilan bog'liqligi tadqiq qilinishi mumkin. Bu ma'lumotlar o'quv jarayonini tashkil etish uchun va talabalarning ta'limga munosabatini o'zgartirishga yo'nalish belgilaydi, lekin o'quv dasturlarining kuchli va kuchsiz taraflarini tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Talabalarning OTMdagi tashqari ta'limi, mustaqil ta'limi va shart-sharoitlari, talabalarning oilasidagi akademik kapitalning shakllanganligi mazkur savolnomada o'z aksini topgan.

Talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholash asosiy tayanch kompetensiyalarni tekshirishdan tashqari, unda qatnashuvchi talabalarga, shuningdek, ularning ota-onasi, o'qituvchisi va OTM ma'muriyatiga savolnoma ham qaratilgan bo'lmog'i lozim. Mazkur savolnoma tayanch kompetensiyalarni shakllanishiga bog'liq bo'lgan omillarni aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, bu savolnoma orqali auditoriya va auditoriyadan tashqari o'qitish, o'qish muhitini o'rganish mumkin. Talabalar uchun mo'ljallangan savolnomadagi savollar ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy kelib chiqishi, talaba tomonidan OTM va o'quv jarayonining qabul qilinishi, uning o'quv jarayoniga oid shaxsiy odatlari va tasavvurlari aniqlanadi. Mazkur ma'lumotlar OTM va o'quv jarayonining tayanch kompetensiyalarni shakllanishidagi o'zaro bog'liqlik darajasini belgilaydi.[8]



Xulosa qilib aytish mumkinki, talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholashda ko'plab omillarni hissobga olish va ijtimoiy-pedagogik muhit va shart-sharoitlarni ham hissobga olish talab etiladi.

References:

1. Jalolov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent.: Akademnashr, 2020. –B.5.
2. Lord F. Novick M. Statistical theories of mental test Scores. –Reading, MA: Addison-Wesley Pub. 1968. –P. 17.
3. Lord F. Novick M. Statistical theories of mental test Scores. –Reading, MA: Addison-Wesley Pub. 1968. –P. 16.
4. Von Hentig H. Die Schule neu denken // Weinheim, Beltz-Verlag, 2003. – p.24.
5. Jahnke T. PISA & Co: Kritik eines Programms // Taschenbuch, 2007. – p.18.
6. Huisken F. Der “PISA-Schock” und seine Bewältigung. Wieviel Dummheit braucht/verträgt die Republik? //VSA-Verlag, Hamburg, 2005. – p.8.
7. Wuttke J. PISA: ein teuer Zufallszahlengenerator // In: Berliner Zeitung, 11.12.2007. – p. 3.
8. Jahnke T., Meyerhöfer W. PISA & Co-Kritik eines Programms // 2. Auflage Franzbecker, Hildesheim, 2007. – p.12
9. Meyerhöfer W. Tests im Test-Das Beispiel PISA. Barbara Budrich // Opladen, 2005. – p. 25.
10. Meyerhöfer W. Tests im Test-Das Beispiel PISA. Barbara Budrich // Opladen, 2005. – p. 89.
11. Huisken F. Der “PISA-Schock” und seine Bewältigung. Wieviel Dummheit braucht/verträgt die Republik? //VSA-Verlag, Hamburg, 2005. – p. 12.
12. Huisken F. Der “PISA-Schock” und seine Bewältigung. Wieviel Dummheit braucht/verträgt die Republik? //VSA-Verlag, Hamburg, 2005. – p. 23-24.